

MOLIYA SEKTORINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI VA UNDA KO’RILADIGAN MASALALARI

Barnoyev Olim Soliyevich

*Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi
o'qituvchisi*

olimbarnoyev69@gmail.com

Arslanov Dostonbek Nuralitdin o‘g‘li

Jizzax politexnika instituti "Servis" fakulteti BH-A yo‘nalishi talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada moliya sektorining iqtisodiy o‘shishga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy manbalar tahlil qilingan, hamda moliya bozorining iqtisodiy o‘shishga ta’sirining o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** real sektor, moliya sektori, iqtisodiy o‘shish, kapital jamg‘arilishi, kapital mobilizatsiyasi, moliyaviy o‘shish ko‘rsatkichlari, kredit, moliyaviy xizmatlar, sug‘urta sektori.*

***Аннотация:** В статье анализируются история изучения взаимосвязи реального сектора экономики сектором, а также влияние развития реального сектора на экономический рост и стране. финансовым*

***Ключевые слова:** реальный сектор, финансовый сектор, экономический рост, накопление капитала, мобилизация капитала, показатели финансового развития, кредит, финансовые услуги, страховой сектор*

In this article stated about history of collaboration of real and finance sectors of economy and its influence to the growth of economy in the country.

***Key words:** real sector, finance sector, growth of economy, capital accumulation, mobilization of capital, indexes of financial growth, financial depth, credits, financial services, insurance sector.*

Moliya muassasalari omonat va depozitlarni jalb qilinishini rag‘batlantirish hamda xorijiy kapitalni jalb qilishga ko‘maklashish orqali kapital jamg‘arilishiga o‘z hissalarini qo‘shishlari mumkin. Kapitalni samarali iplatish masalasiga keladigan bo‘lsak, bu jarayonning to‘g‘ri amalga oshirilishiga asosan tadbirkorlar javobgar bo‘lsalar-da, moliya muassasalari investitsiya loyihalarini tanlashda ehtiyotkorlik

bilan ish yuritishi va taqdim etilgan mablagʻlarning ishlatilishi jarayonini oʻz nazorati ostiga olishi zarur.

Har qanday mamlakatda iqtisodiy oʻsishga erishish uchun quyidagi uch asosiy element zarur boʻladi:

1. Kapital jamgʻarilishi.
2. Kapital mobilizatsiyasi.
3. Kapitalning samarali ishlatilishi.

Bunda moliya muassasalarining asosiy vazifasi kapitalni bir joyga jamlab berish hisoblanadi.

Moliya tizimi va iqtisodiy oʻsish masalalarini oʻrganishda R. Goldsmitning tadqiqoti alohida eʼtiborga loyiqdir. Olim 1960-1963 yillar oraligida 35 mamlakatning bank sektorlari maʼlumotlarini oʻrganib chiqib, uzoq muddatli davrda iqtisodiy oʻsish va moliyaviy rivojlanish traektoriyalari bir-biriga parallel boʻlganligini aniqlagan. Hamda qoʻp holatlarda (istisno holatlar ham mavjud, albatta) iqtisodiy oʻsish moliyaviy rivojlanish bilan bir xil kechganligi ham qayd etilgan. Ammo R. Goldsmitning ishida ularning oʻzaro bogʻliqligi masalasi oʻrganilmagan. Olim qimmatli qogʻozlar bozoriga tegishli maʼlumotlarni oʻz tadqiqotida jalb qilmaganligi ham buning sabablaridan biri boʻlishi mumkin.

Mazkur ish turli tadqiqotlarning amalga oshirilishiga sabab boʻlgan. Iqtisodiy oʻsish dinamikasi bilan moliya muassasalarining rivojlanishiga oid qator tadqiqotlari samarali moliya tizimi shakllangan hududlarda iqtisodiy oʻsish ham yuqori boʻlganligi qayd etilgan.

Olimlar oʻz tadqiqotiga kiritgan moliyaviy rivojlanish koʻrsatkichlari quyidagilardan iborat edi:

moliyaviy chuqurlik (DEPTH) - moliyaviy vositachilar (banklar) likvid

passivlarining (naqd pul va kredit muassasalarini depozitlari) YAIMga nisbati;

- kreditlarda xususiy banklarning ulushi (BANK) tijorat banklari kreditlarining jami kreditlar va Markaziy Bank aktivlarining jami qiymatiga nisbati;

- xususiy biznes kreditlari (PRIVATE) xususiy biznesga berilgan kreditlarni jami berilgan kreditlar miqdoriga nisbati (banklararo kreditlar bundan mustasno), xususiy korxonalariga berilgan kreditlarning YAIMga nisbati (PRIVY).

Oʻz tadqiqotlari uchun R. King va R. Levin real YAIMning aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan oʻsish darajasini, asosiy kapitalning aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan oʻsish darajasini va mehnat unumdorligining oʻsish darajasini tanlaganlar. Ular

tomonidan tuzilgan regressiya tenglamasi moliyaviy chuqurlik ko'rsatkichining yuqori darajada prognozlashtirishga molikligini ko'rsatadi. Ammo bu tadqiqot moliyaviy sektorning qaysi xususiyatlari (hajmi, samaradorligi, raqobatbardoshligi, banklarning tartibga solinishi, nobank muassasalarining roli, aksiya va obligatsiyalar bozorining hajmi va likvidligi, aksiyador va kreditorlarning huquqlari va shu kabilar) iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun eng muhim ekanligini ko'rsatib bermadi. Bundan tashqari, moliya sektorining real sektorga ta'sir qilish mexanizmi haqida ma'lumot yo'q bo'lib, samaradorligi yuqori bo'lgan moliya tizimi investitsiyalarni rivojlangan sohaga yo'naltirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashi ham ma'lum emas.

Umuman olganda, tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar bilan xususiy sektor jamg'armalarining rivojlanishi o'rtasida aloqadorlik borligi tasdiqlanmagan. Ammo moliyaviy vositachilar bilan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YAIMning o'sishi hamda mehnat unumdorligi orasida muhim bog'liqlik borligi aniqlandi. Boshqacha qilib aytganda, bu holat Y. SHumpeterning moliyaviy rivojlanish haqidagi qaranglariga mos tushadi. Y.SHumpeterning fikricha, moliyaviy vositachilar mehnatning umumiy samaradorligini rivojlantirib, o'sishini ta'minlaydi.

Ma'lum bo'lishicha, banklar, nobank moliyaviy vositachilar (sugurta kompaniyalari, nafaqa fondlari, moliyaviy kompaniyalar, investitsiya fondlari va b.) hamda aksiyalar bozorining nisbatan kam taraqqiy etgan mamlakatlarda rivojlanishi yaxshi bo'lgan hamda u yoki bu mamlakatning boynish darajasiga qarab uning moliyaviy tizimi ham rivojlangan. Yana bir xulosa shundan iboratki, mamlakatning boyish darajasiga qarab aksiyalar bozori ham bank kreditlari bozoriga nisbatan samaraliroq ishlay boshlagan. Umuman olganda, XX-asrning 90-yillarida moliya bozorining iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni 3 yo'nalishga bo'lish mumkin:

1. Moliya bozorining dastlabki shartlarini bajarmasdan turib, raqobatning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish. Bu yo'nalishda J. Stiglits, V. Bensivengan, B.Smit, D.Daymond, J. Grinvud kabi mashhur olimlar faoliyat yuritgan.
2. Ikkinchi yo'nalishda tadqiqotchilar endogen iqtisodiy o'sish modelini moliya bozori faoliyatini tasvirlovchi o'zgaruvchilar bilan boyittan. M. Pagano, P.Xouit, F.Agiyon, A. Santamero kabi olimlar moliya bozorining rivojlanishi va iqtisodiy o'sish orasidagi aloqalarning o'ziga xos jihatlarini nazariy jihatdan asoslab berib, ushbu yo'nalishni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar.

3. Mazkur masalaga ekonometrik nuqtai nazardan yondashuv uchinchi yo‘nalishni tashkil qiladi.

Moliya bozorining iqtisodiy o‘shishga ta’siri bilan bog‘liq, muammo hali o‘z echimini topmagan. Aynan moliya bozori iqtisodiy o‘shishini rag‘batlantiradimi yoki buning aksimi degan masalaga oydinlik kiritish zarur.

Moliya bozori va iqtisodiy o‘shish bir xil rivojlanmasligi mumkinligi konsepsiyasi shundan iboratki, rivojlanmagan mamlakatlarda moliya bozori iqtisodiy o‘shishga hech qanday ta’sir o‘tkazmaydi, o‘rta rivojlangan mamlakatlarda u ijobiy va ancha kuchli ta’sir ko‘rsatadi, rivojlangan mamlakatlarda esa u ijobiy, ammo o‘rta rivojlangan mamlakatlarga nisbatan sust ta’sirga ega.

Moliya tizimining iqtisodiy o‘shishga ta’sirini moliyaviy chuqurlik ko‘rsatkichlari asosida ko‘rib chiqish mumkin.

Jahon banki ekspertlari tomonidan tan olingan moliyaviy chuqurlikning 22 indikatorini qamrab oluvchi ma’lumotlar bazasi mavjud. Baza u yoki bu tarkibiy elementning YAIM yoki moliyaviy indekslarga nisbatan solishtirma og‘irligini ko‘rsatib beruvchi nisbiy qo‘rsatkichlardan iboratdir. Ko‘rsatkichlarni 3 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Bank tizimining rivojlanganlik ko‘rsatkichlari (tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning YAIMga nisbati, bank depozitlari hajmining YAIMga nisbati, sof foizli marjaning bank tizimining foizli aktivlariga nisbati va hokazo).

2. Qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanganlik ko‘rsatkichlari (aksiyalar bozorining kapitallashuvining, korporativ va davlat obligatsiyalarining YAIMga nisbati va hokazo)

3. Sug‘urta sektorining rivojlanganlik ko‘rsatkichlari (hayot sug‘urtasi va sug‘urganing boshqa turlari bo‘yicha yig‘ilgan sug‘urta mukofolarning solishtirma hajmi).

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida qo‘shimcha tahliliy qo‘rsatkichlar tuzish mumkin. Ular orqali moliya tizimining alohida segmentlarini solishtirish, hamda mamlakatlarning mazkur segmentlarini solishtirma hajmi asosida klaster tahlilini amalga oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, moliya bozorining iqtisodiyotda tutgan o‘rnini aniqlash qisman hal qilingan masala bo‘lib, moliya sektori bugungi kunga kelib mustahkam iqtisodiy segmentta aylanganligi iqtisodiy o‘shish omili vazifasini to‘laqonli bajarayotganidan dalolat bermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soliyevich, B. O. (2023). MAMLAKATIMIZDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA BANDLIK SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 68-72.
2. Soliyevich, B. O. (2023). MAMLAKATIMIZ IQTISODIY HAMDA IJTIMOYIY TARAQQIY ETISHIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING ROLI VA O'RNI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 4-8.
3. Soliyevich, B. O. (2024). DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI REJALASHTIRISH BA PROGNOZLASHTIRISH. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(4), 121-126.
4. Solievich, B. O. (2024). IMPROVEMENT OF THE SYSTEM OF TAXATION OF PROPERTY OF NATURAL PERSONS AND BUDGET REVENUES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(4), 167-173.
5. Solievich, B. O. (2023). EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES IN THE DIGITAL TRANSFORMATION OF ECONOMIC RELATIONS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(11), 15-20.
6. Турумова, Д. (2022). Банк назоратида ички ва ташқи аудит ўтказишнинг ахамияти. *Science and Education*, 3(12), 1013-1022.
7. Solievich, B. O. (2024). STATE BUDGET REVENUE PLANNING AND FORECASTING. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(4), 161-166.
8. Турумова, Д. (2022). Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, 3(10), 640-645.
9. Barnoyev, O., & Baxtiyorova, S. (2024, March). BUXGALTERIYA HISOBIDA ASOSIY VOSITALAR TURKUMLANISHI VA BAHOLASH TARTIBI. In *Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference* (Vol. 7, pp. 15-16).
10. Abdumannonovna, T. D. (2023). WAYS OF DEVELOPING THE INTERNAL AUDIT SERVICE IN BUSINESS ENTITIES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(8), 37-40.

11. Turumova, D. A., & o‘g‘li Tolibboyev, Q. G. (2023). AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 234-240.
12. Turumova, D. A. (2023). O ‘ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI–AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 608-612.
13. Abdumannonovna, T. D. (2024). EXTERNAL AUDITORS AND THEIR LIABILITY TO THIRD PARTIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 71-75.
14. Abdumannonovna, T. D. (2024). Auditorlik Tekshiruvida Firibgarlikni Aniqlashda Professionallik Qobiliyatini Qo‘llash. *Miasto Przyszłości*, 45, 138-144.
15. Abdumannonovna, T. D. (2024). NEW UZBEKISTAN AND THE MUTUAL INTERESTS OF THE" BIG FOUR" INTERNATIONAL AUDITING COMPANIES. *Miasto Przyszłości*, 45, 600-605.
16. Abdumannonovna, T. D. (2024). Audit Risk, its Elements and Their Assessment. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 847-854.
17. Abdumannonovna, T. D. (2024). AUDIT-AS A FACTOR OF INCREASING BUSINESS EFFICIENCY IN ENTERPRISES. *Miasto Przyszłości*, 45, 594-599.
18. Abdumannonovna, T. D. (2024). The Document Presented by the Auditor is" Audit Report and its Contents". *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 991-997.
19. Расулов, Ш. (2022). МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА РОЛИ. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 23(4), 149-153.
20. Abdumannonovna, T. D. (2024). Relationship With Auditing Standards in Controlling the Quality of Auditor's Work. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 998-1003.
21. Abdumannonovna, T. D. (2024). STUDYING THE COMPANY'S ACTIVITIES AND ACCOUNTING DURING THE AUDITOR'S INSPECTION. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(2), 21-27.
22. Расулов, Ш. (2022). Ўзбекистон Республикасида меҳнат ресурсларининг иш билан бандлигининг жорий ҳолати таҳлили. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 23(2), 227-232.

23. Abdumannonovna, T. D. (2024). Purpose, Tasks, Necessity of Audit in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 2(2), 89-92.
24. Abdumannonovna, T. D. (2024). Methods of Obtaining Audit Evidence. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 221-226.
25. Abdumannonovna, T. D. (2024). EFFECTIVE RESULTS OF APPLYING ANALYTICAL PROCEDURES IN AUDITING
26. Аверин, А. Ю., & Валиханова, М. К. (2023). СУЩНОСТЬ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ И ЭТАПЫ ИХ РАЗВИТИЯ. *Экономика и социум*, (11 (114)-1), 524-527.
27. Saidahmedova, D. S., & Valixanova, M. (2023). QURILISH KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY QILISH-DAVR TALABI. *Экономика и социум*, (5-2 (108)), 330-334.
28. Keldiyorovich, O. I., & Sharof o'g'li, R. S. (2023). PUL OQIMLARI TO'G'RISIDAGI HISOBOTLARNI TUZISHGA QO 'YILGAN TALABLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(1), 276-283.
29. Valixanova, M. K., & Averin, A. Y. (2024). KORXONALARDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI JORIY ETISHNING XORIJIY TAJRIBALARI. *Экономика и социум*, (2 (117)-1), 762-765.
30. Yuryevich, A. A. FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ACCOUNTING.
31. Sharof, R. S. (2023). Analysis of The State Employment Policy Aimed at The Employment of Labor Resources in The Republic of Uzbekistan. *International Journal of Human Capital and Innovative Management*, 1(1), 54-61.
32. Yurievich, A. A. (2024). ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT PROCESSES FOR DEVELOPMENT OF QUALITY MANAGEMENT SYSTEM CONCEPTS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 3(4), 143-146.
33. Darvishaliyevna, N. D. (2023). INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI BOSHQARISH. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(1), 62-66.
34. Мелибоева, М., & Мелибоев, А. (2024). РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТЬЮ ПРОМЫШЛЕННЫХ

ПРЕДПРИЯТИЙ В РЕГИОНАХ. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(4), 418-425.

35. Расулов, Ш. Ш. (2024). МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИНИ ИШ ҶРИНЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *Экономика и социум*, (2-1 (117)), 1318-1321.

36. ЦОЙ, М., & САИДАХМЕДОВА, Д. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. *ЭКОНОМИКА*, 648-655.

37. Саидахмедова, Д. С. (2020). СУЩНОСТЬ МЕНЕДЖМЕНТА. *Экономика и социум*, (2), 346-349.

38. Saidahmedova, D. Management Analysis and Innovation Management Model. *Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd)*, ISSN, 2456-6470.

39. Saidakhmedova, D. (2019). Development of management of tourism in the Dzhizak area of the republic of Uzbekistan. *Theoretical & Applied Science*, (7), 382-385.

40. Saidbaxromovna, S. D., & Muhabbat, X. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 124-128.

41. Dilafruz, S., & Shaxnoza, G. O. (2023). О 'ZBEKISTONDA RAQAMLI TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRSH-DOLZARB MUAMMO SIFATIDA. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 153-157.

42. Saidbaxromovna, S. D. (2023). О'ZBEKISTONDA RAQAMLI TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRSH ISTIQBOLLARI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 183-187.

43. Saidahmedova, D. (2024). О 'ZBEKISTONDA MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY ASOSLARI. *Journal of Contemporary World Studies*, 2(1), 50-54.